

BOLALAR XIRURGIYASI FANINI O‘QITISHDA TALABALAR KASBIY LAYOQATINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Sidikov A.A.,

*Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
Xirurgiya kafedrası professori*

Sapoxonov X.S.,

*Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
Xirurgiya kafedrası assistenti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolalar xirurgiyasi fanini o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy layoqatini bosqichma-bosqich rivojlantirishning pedagogik-didaktik asoslari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kasbiy layoqat, bolalar xirurgiyasi, bosqichli rivojlantirish, klinik kompetensiya, simulyatsiya, OSCE, interaktiv metodlar, amaliy ko‘nikma, klinik fikrlash, pedagogik model.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогико-дидактические основы поэтапного развития профессиональной компетентности студентов в процессе преподавания дисциплины «Детская хирургия».

Ключевые слова: профессиональная компетентность, детская хирургия, поэтапное развитие, клиническая компетенция, симуляционное обучение, OSCE, интерактивные методы, практические навыки, клиническое мышление, педагогическая модель.

Abstract. This article examines the pedagogical and didactic foundations of step-by-step development of students' professional competence in teaching pediatric surgery.

Keywords: professional competence, pediatric surgery, staged development, clinical competence, simulation training, OSCE, interactive methods, practical skills, clinical reasoning, pedagogical model.

Kirish. Bugungi kunda tibbiy ta'lim tizimida mutaxassisning nafaqat nazariy bilimga ega bo'lishi, balki murakkab klinik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olishi, amaliy harakatlarni to'g'ri bajarishi va bemor bilan samarali muloqot qila olishi muhim mezon sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, bolalar xirurgiyasi sohasida bu talablar yanada yuqori bo'lib, har bir noto'g'ri qaror yoki texnik xato bolalar hayoti uchun jiddiy xavf tug'dirishi mumkin.

Shu sababli bolalar xirurgiyasi fanini o‘qitishda talabalar kasbiy layoqatini shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik imkoniyatlarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. An‘anaviy ma‘ruza-usulidagi o‘qitish yetarli natija bermayotgan sharoitda interaktiv, simulyatsion va klinik integratsiyalashgan metodlar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish zarurati ortmoqda.

Tibbiy ta'lim jarayonida kasbiy layoqatni rivojlantirish bir qator metodik, tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarning izchil va tizimli ta'minlanishini talab etadi. Avvalo, o‘quv jarayonining metodik asoslari qayta ko‘rib chiqilib, ta'lim mazmuni real klinik faoliyat talablari bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Shu nuqtai nazaridan, kasbiy layoqatni rivojlantirishda nazariy bilimlarni yetkazishdan ko'ra, ularni amaliy vaziyatlarda qo'llash mexanizmlarini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Metodik jihatdan kasbiy layoqatni rivojlantirish o'qitishning pragmatik yondashuviga asoslangan interfaol va faol metodlarni keng qo'llashni taqozo etadi. Klinik vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlar, muammoli topshiriqlar, keyslar va reflektiv muhokamalar orqali talabalar klinik fikrlash, qaror qabul qilish va kasbiy javobgarlikni anglash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich egallaydi. Bu jarayonda o'qituvchi nazoratchi emas, balki kasbiy faoliyatni yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi subyekt sifatida ishtirok etadi.

Tashkiliy jihatdan esa o'quv jarayonini klinik amaliyot bilan integratsiyalash muhim hisoblanadi. Fikrimizcha, auditoriya mashg'ulotlari, simulyatsion treninglar va klinik baza faoliyati o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlash talabalarning kasbiy layoqatini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, bolalar xirurgiyasi fanida o'quv mashg'ulotlarining real klinik muhitga yaqin tashkil etilishi talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Kasbiy layoqatni rivojlantirishda tashkiliy shart-sharoitlar qatoriga baholash tizimini ham kiritish zarur. An'anaviy baholash usullari ko'proq bilimni tekshirishga qaratilgan bo'lsa, pragmatik yondashuv asosida baholash talabaning amaliy faoliyati, qaror qabul qilish sifati va kasbiy javobgarlik darajasini aniqlashga yo'naltiriladi. Bu esa baholash mezonlarini layoqat viy va faoliyatga asoslangan shaklda ishlab chiqishni talab qiladi.

Umuman olganda, tibbiy ta'lim jarayonida kasbiy layoqatni rivojlantirish metodik, tashkiliy va pedagogik omillarning o'zaro uyg'unligida amalga oshiriladi. Dissertant sifatida ta'kidlash joizki, ushbu jarayonni samarali tashkil etish pragmatik yondashuvga asoslangan ta'lim texnologiyalarini joriy etish, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi faol hamkorlikni ta'minlash hamda ta'lim natijalarini real klinik faoliyat mezonlari asosida baholash orqali mumkin bo'ladi.

Materiallar va metodlar. Mazkur tadqiqot bolalar xirurgiyasi fanini o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy layoqatini rivojlantirish bosqichlarini aniqlash va ularning samaradorligini baholashga qaratilgan. Tadqiqot asosida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida o'qiyotgan tibbiyot yo'nalishi talabalari ishtirokida olib borildi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, taqqoslash, tahlil qilish, modellashtirish hamda tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tibbiy ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv, pragmatik ta'lim konsepsiyasi hamda klinik integratsiya tamoyillari tashkil etdi.

Tadqiqot ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda bolalar xirurgiyasi fanini o'qitishda talabalarning kasbiy layoqatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar tahlil qilindi. Bu jarayonda ilmiy adabiyotlar, zamonaviy tibbiy ta'lim standartlari, simulyatsion o'qitish texnologiyalari hamda klinik tayyorgarlik metodlari o'rganildi. Shuningdek, talabalarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar aniqlash maqsadida diagnostik kuzatuvlar olib borildi.

Ikkinchi bosqichda talabalarning kasbiy layoqatini rivojlantirishga qaratilgan bosqichli pedagogik model amaliyotga joriy etildi. Ushbu model to'rt asosiy bosqichdan iborat bo'lib, ular nazariy-motivatsion tayyorgarlik, simulyatsion-amaliy mashg'ulotlar, klinik integratsiya hamda mustaqil professional faoliyat bosqichlarini qamrab oldi. Nazariy-motivatsion bosqichda talabalar bolalar xirurgiyasi bo'yicha fundamental bilimlar, klinik algoritmlar va kasbiy etik me'yorlar bilan tanishtirildi.

Simulyatsion-amaliy bosqichda talabalar maxsus simulyatsion laboratoriyalarda manekenlar va trening uskunalari yordamida amaliy ko'nikmalarni egalladilar. Bu bosqichda OSCE (Objective Structured Clinical Examination) elementlari, klinik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar hamda muammoli vaziyatlarni hal qilishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar qo'llanildi.

Klinik integratsiya bosqichida talabalar real klinik muhitda, ya'ni shifoxonalarning bolalar xirurgiyasi bo'limlarida amaliy mashg'ulotlar o'tkazdilar. Bu jarayonda talabalar bemorlarni ko'rikdan o'tkazish, differensial tashxis qo'yish, klinik qaror qabul qilish hamda jamoaviy tibbiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirdilar.

Mustaqil professional faoliyat bosqichida talabalar o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarni mustaqil tarzda qo'llash, klinik vaziyatlarni tahlil qilish hamda reflektiv baholash orqali kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Tadqiqot natijalarini baholashda diagnostik testlar, amaliy ko'nikmalarni tekshirish, klinik vaziyatlarni tahlil qilish hamda reflektiv baholash metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, talabalarning kasbiy layoqatini aniqlash uchun kompetensiyaviy baholash mezonlari ishlab chiqildi. Mazkur mezonlar talabalarning nazariy bilim darajasi, amaliy ko'nikmalarni bajarish sifati, klinik fikrlash darajasi va kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini baholash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar pedagogik tahlil, qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish metodlari yordamida qayta ishlanib, bolalar xirurgiyasi fanini o'qitishda kasbiy layoqatni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlari aniqlab berildi.

Natijalar va muhokama. Talabalarda kasbiy layoqatni rivojlantirish jarayonida bir qator metodik va tashkiliy to'siqlar mavjud bo'lib, fikrimizcha, ushbu muammolarni chuqur tahlil qilmasdan turib samarali pedagogik yechimlarni ishlab chiqish mushkul. Avvalo, tibbiy ta'limda hanuzgacha nazariy bilimlarni yetkazishga yo'naltirilgan an'anaviy yondashuvning ustunligi talabalarning real klinik vaziyatlarda mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishni cheklab kelmoqda. Bu holat bilim va amaliyot o'rtasidagi uzilishlarni yuzaga keltiradi.

Yana bir muhim to'siq - o'quv jarayonida real klinik vaziyatlar va kasbiy rollarning yetarli darajada texnologiya lashtirilmasligidir. Umuman olganda, talabalarga nazariy jihatdan to'g'ri bo'lgan, biroq real klinik sharoitdan uzoq mashg'ulotlar taklif etilishi ularning kasbiy fikrlashi va qaror qabul qilish qobiliyatini cheklaydi. Natijada talaba klinik amaliyotga chiqqanida psixologik noaniqlik va ishonchsizlik holatini boshdan kechiradi.

Bolalar xirurgiyasi fanini o'qitishda quyidagi bosqichli model samarali hisoblanadi:

1-bosqich – nazariy-motivatsion tayyorgarlik (fundamental bilimlar, klinik algoritmlar);

2-bosqich – simulyatsion-amaliy mashg'ulotlar (manekenlar, treninglar, OSCE);

3-bosqich – klinik integratsiya (real bemorlar bilan ish, jamoaviy faoliyat);

4-bosqich – mustaqil professional faoliyat va refleksiya.

Mazkur bosqichlar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, bilim → ko'nikma → malaka → kompetensiya zanjiri asosida talabani haqiqiy klinik muhitga tayyorlaydi.

Kasbiy layoqatni rivojlantirishdagi yana bir to'siq baholash tizimi bilan bog'liq. Mavjud baholash usullari ko'proq bilim hajmini aniqlashga qaratilgan bo'lib, talabaning amaliy faoliyati, kasbiy javobgarligi va reflektiv fikrlashi yetarli darajada inobatga olinmaydi. Fikrimizcha, bunday baholash yondashuvi talabalarda natijaga yo'naltirilgan kasbiy faoliyatni shakllantirishga xizmat qilmaydi.

Shuningdek, o'qituvchilarning pedagogik va klinik tayyorgarligi darajasi ham muhim omil hisoblanadi. Umuman olganda, barcha o'qituvchilar pragmatik yondashuvga asoslangan ta'lim texnologiyalarini qo'llashga tayyor emasligi, interfaol metodlardan foydalanish ko'nikmalarining yetarli emasligi kasbiy layoqatni rivojlantirish jarayonini sekinlashtiradi. Bu holat o'qituvchi va talaba o'rtasidagi samarali pedagogik hamkorlikni cheklaydi.

Talabalarda kasbiy layoqatni rivojlantirishga doir nazariy asoslar hamda ilg'or pedagogik yondashuvlar tahliliga tayangan holda quyidagi metodik-amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

– bolalar xirurgiyasi fanini o'qitish jarayonini pragmatik yondashuv asosida qayta loyihalash, ya'ni har bir mavzuni real klinik vaziyat, kasbiy vazifa va amaliy natija bilan uzviy bog'lash;

– o'quv mashg'ulotlarida kliniko-amaliy keyslar, muammoli vaziyatlar va qaror qabul qilishga yo'naltirilgan topshiriqlardan tizimli foydalanish orqali talabalarning kasbiy fikrlashini faollashtirish;

– talabalarga bosqichma-bosqich nazorat ostidagi mustaqillik (amaliy avtonomiya) berish, bu orqali ularning kasbiy ishonchi va javobgarlik hissini shakllantirish;

– bolalar xirurgiyasi mashg'ulotlarida simulyatsion treninglar va real klinik muhitga yaqin o'quv sharoitlarini keng joriy etish orqali amaliy ko'nikmalarni xavfsiz shakllantirish;

– kasbiy layoqatni baholashda faqat nazariy bilimlarni emas, balki talabaning qaror qabul qilish sifati, amaliy harakatlari va reflektiv tahlil qobiliyatini inobatga oluvchi layoqat viy baholash mezonlarini ishlab chiqish;

– klinik mashg'ulotlardan so'ng reflektiv muhokamalarni tashkil etish orqali talabalarning o'z faoliyatini tahlil qilish va kasbiy o'sishga yo'naltirilgan xulosalar chiqarishiga sharoit yaratish;

– o‘qituvchilarning pedagogik va metodik tayyorgarligini oshirish maqsadida pragmatik yondashuvga asoslangan o‘qitish texnologiyalari bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

Mazkur metodik-amaliy tavsiyalarni izchil joriy etish bolalar xirurgiyasi fanini o‘qitish samaradorligini oshirish, talabalarning kasbiy layoqatini real klinik faoliyat talablariga mos ravishda rivojlantirish hamda bo‘lajak shifokorlarni zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimi ehtiyojlariga tayyorlashga xizmat qiladi va pragmatik yondashuv asosida shakllangan baholash tizimi tibbiy ta‘limda sifat o‘zgarishini ta‘minlaydi - u talabaning kasbiy salohiyatini, mustaqil fikrlash darajasini va klinik qaror qabul qilish tezkorligini obyektiv tarzda aniqlashga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan nazariy mulohazalar, ilmiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tibbiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan bolalar xirurgiyasi mashg‘ulotlarini tashkil etishda kasbiy layoqatni rivojlantirish nafaqat dolzarb, balki pedagogik jihatdan zarur jarayon hisoblanadi. Bu jarayon bolalar xirurgiyasi fanini o‘rgatish orqali talabalarning kommunikativ salohiyatini rivojlantirish, ularning kasbiy tafakkurini faollashtirish, global madaniyatlararo muloqotga tayyorlash imkonini yaratadi. Kasbiy layoqat - bu talabani faqat bilim sohibi emas, balki ijodkor, erkin fikrlovchi va kommunikativ shaxs sifatida rivojlantirishga xizmat qiluvchi murakkab ko‘p komponentli pedagogik tizimdir. Ayniqsa, tibbiyot sohasiga mansub bo‘lgan talabalarda bu layoqatni rivojlantirish ularning real klinik vaziyatlarda mustaqil va mas‘uliyatli qaror qabul qilishga tayyorligini oshirish, bemor va uning yaqinlari bilan samarali muloqot olib borish qobiliyatini shakllantirish, kasbiy faoliyatda etik me‘yorlarga rioya etish, jamoa bilan hamkorlikda ishlash hamda zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimi talablariga mos raqobatbardosh mutaxassis sifatida yetishib chiqishini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tibbiyot yo‘nalishida bolalar xirurgiyasi fanini o‘rgatish jarayonida kasbiy kompetentlikka asoslangan metodik yondashuvlar, multimodal o‘quv muhitlari, kontekstual va vizual resurslarga tayangan topshiriqlar, shuningdek, kasbiy baholash mezonlari talabalarning klinik tafakkurini chuqurlashtirish, tahliliy fikrlashni faollashtirish, differensial tashxis qo‘yish ko‘nikmalarini mustahkamlash va refleksiv qaror qabul qilish qobiliyatlarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Bunday metodik integratsiya talabalarning nafaqat nazariy bilimini oshiradi, balki real klinik vaziyatlarga nisbatan kuzatuvchanlik, klinik mantiq va dalillarga asoslangan tibbiy qarorlar qabul qilish salohiyatini ham kuchaytiradi. O‘quv jarayonining vizual, interaktiv va kontekstual tashkil etilishi orqali talaba kasallik simptomlari, kasbiy mezonlar va patofiziologik jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaxshiroq anglay oladi.

Natijada, kasbiy kompetentlikka asoslangan ta‘lim texnologiyasi bolalar xirurgiyasi fanini o‘qitishda talabalarning nazariy bilimlarini real klinik vaziyatlar bilan uyg‘unlashtirish, klinik va kommunikativ fikrlashini rivojlantirish, mustaqil va asoslangan

qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish, amaliy ko'nikmalarni xavfsiz va mas'uliyat bilan bajarish hamda kasbiy javobgarlikni anglash darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mylopoulos M., Woods N.N. Preparing medical students for future learning using basic science instruction. *Medical Education*, 48(7). – Wiley, Oxford, 2014. – P. 667–673.
2. Johnson G.A., Pipas C.F., Newman-Palmer N.B., Brown L.H. The emergency medicine oral case simulation examination. *Academic Medicine*, 77(5). – Wolters Kluwer, Philadelphia, 2002. – P. 482–488.
3. Hauer K.E., Ten Cate O., Boscardin C., et al. Understanding trust as an essential element of trainee supervision and learning in the workplace. *Advances in Health Sciences Education*, 19(3). – Springer, Dordrecht, 2014. – P. 435–456.
4. Eva K.W., Regehr G. Self-assessment in the health professions: a reformulation and research agenda. *Academic Medicine*, 80(10). – Wolters Kluwer, Philadelphia, 2005. – P. 46–54.
5. Aminov R.R. Tibbiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2021. – 256 b.
6. Kern D. Curriculum development for medical education. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2017. – 280 p.

